

KORRUPSIYA VA JINOYATCHILIK TARAQQIYOT KUSHANDASI

Baxtiyorov Javohirbek Jaxongirovich

O'zbekiston Milliy Universiteti 3-bosqich talabasi

Tel:+998901107076 Jahongirovich97@gmail.com

**Annotatsiya:** Bugun hech kimga sir emaski korrupsiya va jinoyatchilik masalari eng dolzarb muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Istlalgan iqtisodiy rivojlangan va turli tarqqiyot darajasiga yetgna mamlakatning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ular avvalo bu jirkanch illatlardan qutulgan. Bugun ayniqsa tanish bilish va nepatizm (qarindosh urug'chilik) tobora kuchayib bormoqda, bu esa albatta millatning buguni, tarqqiy etishi va kelajagi uchun jiddiy zarar yetkazadi.

**Tayanch so'zlar:** Korrupsiya, jinoyatchilik, nepatizm, xavfsizlik, rivojlanish, taraqqiyoct, millat, korrupsiyaga qarshi kurashish, vijdon.

**Abstract:** Today it is no secret that the issues of corruption and crime are recognized at the most urgent problems. If we look at the history of the desired economically developed and different development level of the country, they first got rid of these disgusting evils. Today, especially, nepotism are on the rise, which will definitely cause serious damage to the nation's present, development and future.

**Key words:** Corruption, crime, nepotism, security, development, nation development, fight against corruption, conscience.

Ha qanday taraqqiy etgan mamlakat ildiziga bolta uruvchi ilat bu shubhasiz korrupsiya va jinoyatchilik hisoblanadi. Bugungi kunda korrupsiyani oldini olish masalasida yurtimizda uda ko'plab sayi-harakatlar amalga oshirilmoqda. Korrupsiya o'zi nima? Korrupsiya bu mansbador shaxsnинг o'zlariga ishonib topshirilgan huquqlaridan shaxsiy borlik ortdirish maqsadida foydalanishi tushuniladi. Shuningdek poraxo'rlik, mansabni suviste'mol qilish va boshqa turdag'i noqonuniy harakatlarni o'z ichiga oladi. Korrupsiya bu kelajakka bo'lган tahdid, ertangi kunga bo'lган umid alangasini bevaqt so'ndirishdir. Agar u ildiz otsa millat hechqachon ravnaq topib taraqqiy etmaydi.

Bu illatning kelib chiqishiga juda ko'plab omillar sabab bo'lmoqda, birinchi galda maktab yoshidanoq bolaning yaxshi ta'lim olmay turib oliy ta'lim muassasalariga turli aylanma yo'llar bilan o'qishga kirishi va uni bitirish uchun tanish-bilish yo'llashi, o'qishdan so'ng tabiiy hol u bir davlat idorasi hodimi bo'lishi, bugungi tezkor axborot zamonida yashab turgan bir paytimizda bilimsizlik oqibatida u yana korrupsiyaga yo'q qo'yishi, rahbarlik lavozimiga kela turib ham jiddiy masalalarni qing'ir yo'llar bilan hal qilish payiga tushishi, ana shunday zanjir uzilmay ish faoliyati davom etishi, shu haqida hech o'ylab ko'rganmizmi? Xalqimizda "kasalni yashirsang istimasi oshkor qiladi" degan maqol bor, u uddabiron "qahramonimiz" esa kun kelib qonun tuzog'iga tushadi. Chunki mamlakatimizda qonun ustuvor, qonunchiligimiz esa bunday

jinoyatchilarni mamlakatimizda emin-erkin yashab faoliyat olib borishiga yo'l qo'ymaydi. O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 210-211-212 moddalarida aynan korrupsiya jinoyatlari uchun muaqarrar jazo bor.

Yaqinda U-Report<sup>1</sup> bilan korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi yoshlar o'rtaida ularni fikrlarini bilish uchun so'rovnoma o'tkazdi. So'rovnomada qatnashganlarning 21% ta'lim tizimida 14% esa sog'liqni saqlash tizimizda korrupsiyani mavjud deb hisoblashgan.

"Transparency international" xabariga ko'ra O'zekiston korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 153-o'rinda turar ekan

Har bir davlat tarixida yangi ijtimoiy sifat holatiga o'tish, afsuski, korrupsiya va jinoyatchilik kabi jirkanch hodisa bilan birga yuz bergan. Shu bilan birga, jinoyatchilikning o'sishi nafaqat islohotlar yo'liga jiddiy to'siq, balki islohotlar davrida belgilangan maqsadlarga erishishga ham qarshi bevosita tahdid tug'diradi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" asarida shunday yozadi: "Markaziy Osiyoning bosha davlatlari singari O'zbekiston Respublikasi ham bundan holi emas. Korrupsiyaga va jinoyatchilikka qarshi kurash muammolariga bizdagi qiziqish aslo bejiz eams. Albatta, bu borada keng tarqalgan va umum e'tirof etilgan bir fikrni, ya'ni totalitarizmdan demokratiya va bozor munosabatlariga o'tishdek murakkab davr mohiyatan asosiy siyosiy, iqtisodiy va madaniy tuzilmalarni sindirib tashlashni anglatadi, bu esa axloq-odob me'yorlariga salbiy ta'sir etadi va jinoyatchilik hamda korrupsiya muqarrar ravishda kuchayadi, degan xulosani eslatib o'tish mumkin."<sup>2</sup>

Biz bu illatlar haqida bugun globalashuv jarayonlari kundan-kun avj olib borayotgan bir davrda bot-bot gapirmoqdamiz, lekin ko'rishimiz mumkinki o'tgan asrning so'nggi yillarida mamlakatimzni oldinda kutayotgan tahdidlar orasida korrupsiya va jinoyatchilik masalalari asosiy muammolar sifatida baholangan va qaysidir ma'noda bashorat etilgan.

Korrupsiya va jinoyatchilikning avj olishi davlatning konstitutsiyaviy asoslarini yemiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklari jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi. "Qonunlar va farmonlarni qabul qilishdan asosiy maqsad ularni chetlab o'tishdir" degan mutlaqo yaramas qoida jamiyatning eng oddiy huquqiy tartibot va jamoat tartibini saqlab turish qobiliyatidan mahrum bo'lishiga olib boradi. Jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslarini yemiradi. Biz e'tibor qilishni hohlamaydigan birgina illat jamiyat a'zolarining fuqarolik mavqelarini yo'qqa chiqaradi.

Bugungi kunda ma'lumki davlat idoralari o'z faoliyatini jamoatchilik uchun shaffof yuritishi, korrupsiyaviy hatarlarning oldini olishga qaratilgan eng samarali vositalardan biridir. Shu maqsadda so'nggi yillarda davlarimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan O'zbekistonda mazkur yangilanishda keng ko'lamli

<sup>1</sup> U-Report – bu yoshlar uchun mo'ljalangan ijtimoiy monitoringning innovatsion raqamli platformasi.

<sup>2</sup> Islom Karimov – O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida:xavfsizlikk tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. O'zbekiston, 1997.-86b.

islohotlar amalga oshirilib turli mexazmlar joriy etildi. Byurokratik to'siqlarni olib tashalash va korrupsiyaning turli ko'rinishlariga qarshi kurashishda katta ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda.

Birinchidan: jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish tizimi tubdan takomillashtirilib, prezidentning xalq qabulxonasi, ishonch telefoni hamda virtual qabulxonasi ishga tushdi. Murojaatlar bilan ishlash tizimi har bir vazirlik va davlat idoralarida virtual qabulxona hamda sayyor qabullar ko'rinishida tashkil etilmoqda.

Ikkinchidan: barcha davlat organlari va tashkilotlar faoliyatida raqamli va onlayn texnologiyalardan keng foydalanilmoqda, xususan ochiq ma'lumotlar poratli yururik shaxslar va tadbirkorlik subyektlarining hisobga qo'yilgan ma'lumotlar ba'zasi va boshqa platformalar byurokratiyani qisqartirib korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Uchinchidan: byudjet mablag'larining talon-taroj qilinishini oldini olish hamda davlat hadirlari jarayonlarini ochiqlash maqsadida davlat haridlari tog'risidagi qonun qabul qilindi. Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan tashkil etilayotgan tenderlar haqida ma'lumotlar [www.etender.uzex.uz](http://www.etender.uzex.uz) saytida e'lon qilib borilmoqda. Bularning barchasi ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida amalga oshirilmoqda, undan tashqari korrupsiyani oldini olish hamda unga qarshi kurashish borasida ham samarali ish hisoblanadi.

Ayni shu ishlarni samarali tashkil etish maqsadida 2017-yil 3-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 419-sonli "korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni imzolandi.

Qonunda butunlay manfaatlar to'qnashuviga yo'q o'yilmasligi ham nazarda tutiladi. Qonunga ko'ra korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari to'iq belgilab o'tilgan. Jumladan, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish shakllantirish; davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish; korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash va boshqa muhim kategoriylar belgilab o'tilgan.<sup>3</sup>

Yanayan aytarli jihatlari shundaki, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarining korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi bevosida ta'minlanadi.

Agar korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi ta'minlanmas ekan turli to'siqlarga duch kelaveramiz. Bu orada aholi va jamoatchilik bilan uzviy birga ishslash va

<sup>3</sup> Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuni 5-modda – Toshkent sh; 2017-yil 3-yanvar, O'RQ-419-son.

---

faoliyatniham birga olib borish kerak. Korrupsiyaga qarshi qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik takommilashtirish yuzasidan aholidan bevosita takliflar olinishi, ularning fikr mulohazalari bilan ishlashni taqozo etadi, chunki xalq ichoda korruption holatlar aynan qaysi sohada, qay holatda va qanday qilib manfaatlar to'nqshuvi yuzga kelayotgan vaziyatlar borasida ular faolroq va asosiy bo'g'in hisoblanadi

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan korruptioniaga qarshi kurashish bo'yicha alohida organ – tuzilmaning tashkil etilishi bu korruptioniaga qarshi kurashish bo'yicha eng katta yirik qadamlardan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, jinoyatchilik va korrupsiya bizning o'z xavfsizligimzga ham, xalqaro xavfsizlikka ham tahdida soluvchi real manbadir. Bu illatlarga qarshi butun dunyo barqaror kurash olib borishi va turli hamkorklarni tizimli yo'lga qo'yishi hamda bu borada ishlarni amaliyotga joriy qilishi zarur deb hisblayman, zero biz kelajak avlod uchun horrupsiya va jinoyatdan holi, xavfsiz, barqaror hamda tinch dunyo qoldirishga majburmiz.